

Yevropa Parlamenti va Kengashining  
uchinchi davlat fuqarolarining mavsumiy ishchi sifatida ishga yollanilib  
hududga kirishi va qolishi shartlari haqidagi  
2014-yil 26-fevraldagi 2014/36/EU-son direktivasiga muvofiq  
**mavsumiy ishchilarning huquq va majburiyatlari haqida**  
Ma'lumot

Latviya Respublikasiga mavsumiy ishchi sifatida kiruvchi va shu yerda qoluvchi uchinchi davlat fuqarolari quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

**Huquqlari:**

- ishga yollanish, ish bajarish sharoitlari, shu jumladan, to'lov va ishdan bo'shash, ish soatlari, mehnat ta'tili va bayram kunlari, shuningdek, ish joyidagi salomatlik va xavfsizlik talablariga oid masalalarda teng munosabatga ega bo'lish;
- ish beruvchi bilan hamkorlik qilish, unga norozilik bildirib chiqish, u bilan muzokara olib borish va jamoaviy bitimlar tuzish;
- ish beruvchi tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan qoplanmagan mukofot deb qaraluvchi istalgan to'lovlarni olish;
- mahsulot va xizmatlar olish, ammo yashash uchun boshpana bundan mustasno;
- Davlat Bandlik Agentligidan mavsumiy ishlarga oid maslahat xizmatidan foydalanish;
- ta'lim olish va kasb-hunar o'rgatish darslarida ishtirok etish;
- diplomlar, sertifikatlar va boshqa kasbiy malakalarni tan olishda bir xil munosabatga ega bo'lish;
- agar viza oxirgi 12 oy ichida 6 oydan kam muddatga berilgan bo'lsa, avvalgi ish beruvchi bilan hamkorlikni davom ettirish yoki boshqa ish beruvchi bilan yangitdan hamkorlik qilish uchun Latviya Respublikasini tark etmasdan turib, joriy vizaning muddati tugashidan kamida uch kun oldin viza olish uchun ariza berish orqali vizani cho'zdirish;
- agar ish mavsumiy ishchini taklif qilgan ish beruvchi bilan davom ettiriladigan bo'lsa, vizani cho'zish jarayoni ketayotgan muddat ichida ham ishlashda davom etish;
- agar malakaga oid talablar bajarilgan bo'lsa va sug'urta holati yuz bersa, ijtimoiy sug'urtaga ega shaxs Davlat Ijtimoiy Sug'urta Tizimidan (Davlat Ijtimoiy Sug'urta Agentligi tomonidan talab qilinadigan) <https://www.vsaa.gov.lv/lv/pakalpojumi>) kasallik nafaqasi kabi xizmatlar olishi;

Mavsumiy ishchilarning ushbu huquqlari Latviya fuqarolariniki bilan bir qatorda va bir xil darajada kafolatlanadi.

**Majburiyatlar:**

- mavsumiy ish uchun taklifni qaysi ish beruvchi bergan bo'lsa, faqatgina uning qo'lida ishlash;

- mansabi, mukofot qiymati borasida istalgan o'zgarishlar haqida Fuqarolik va Migratsiya Ishlari Vazirligiga uch ish kuni ichida ma'lumotlarni Čiekurkalna 1. līnija 1, k-3, Riga, LV-1026 manziliga jo'natib yoki [pasts@pmlp.gov.lv](mailto:pasts@pmlp.gov.lv) elektron manziliga arizaga xavfsiz elektron imzo qo'ygan holda xabar berish;

**Agar ish beruvchi tomonidan huquqbuzarlik qilinsa, majburiy mehnatga majbur etilsa yoki odam savdosiga aloqador bo'linganda murojaat qilib boriladigan joylar:**

**Davlat politsiyasi** – agar favqulotda vaziyat bo'lsa, 112 yoki 110 raqamiga qo'ng'iroq qilinadi yoki shaxsan Davlat Politsiya mahkamasiga kelib, o'zingiz haqingizda, jinoyat turi haqida xabar beriladi, shuningdek, Davlat Politsiyaga ariza jo'natiladi. Murojaat uchun ma'lumot: Riga, Čiekurkalna 1. līnija 1, k-4, LV-1026, [pasts@vp.gov.lv](mailto:pasts@vp.gov.lv) elektron manziliga murojaat qilinganda arizaga elektron imzo qo'yiladi.

**Davlat Mehnat Inspektorati** – Rigadagi Davlat Mehnat Inspektoratiga (Kr. Valdemāra iela 38 k-1) yoki Davlat Mehnat Inspektoratining istalgan mahalliy bo'limiga o'zingiz haqingizda, ish beruvchi va jinoyat turi haqida batafsil ma'lumot berib, shaxsan murojaat qilish yoki ariza yo'naltirish (Kr. Valdemāra iela 38 k-1, Riga, LV-1010) yoki elektron imzoni qo'llab [vdi@vdi.gov.lv](mailto:vdi@vdi.gov.lv) manziliga murojaat qilish. (Shuningdek, SLI web-sahifasida anonim ravishda xabar berish) yoki SLI ning (+371) 67186 522 maslahat telefoniga qo'ng'iroq qilish orqali murojaat qilish mumkin.

Odam savdosining oldini olish uchun **24/7 Yordam ko'rsatish tarmog'i** mavjud. Har qanday odam (+371) **28612120** telefoniga murojaat qilgan holda muayyan holatda qanday yo'l tutish kerakligi haqida ma'lumot olishi mumkin.

**Mehnat munosabatlaridagi huquqlaringiz va boshqa sohalarda maslahat olish uchun murojaat qilib boriladigan joylar:**

**Davlat Mehnat Inspektorati** – Rigadagi Davlat Mehnat Inspektoratiga (Kr. Valdemāra iela 38 k-1) yoki Davlat Mehnat Inspektoratining istalgan mahalliy bo'limiga o'zingiz haqingizda, ish beruvchi va jinoyat turi haqida batafsil ma'lumot berib, shaxsan murojaat qilish yoki ariza yo'naltirish (Kr. Valdemāra iela 38 k-1, Riga, LV-1010) yoki elektron imzoni qo'llab [vdi@vdi.gov.lv](mailto:vdi@vdi.gov.lv) manziliga murojaat qilish. (Shuningdek, SLI web-sahifasida anonim ravishda xabar berish) yoki SLI ning (+371) 67186 522 maslahat telefoniga qo'ng'iroq qilish orqali murojaat qilish mumkin.

Chet elliklar uchun yagona oyna (Ijtimoiy Integratsiya Fondi tomonidan tashkil qilingan) – Latviya hududida yashash huquqiga ega uchinchi davlatlar fuqarolariga yordam ko'rsatuvchi oyna. Rigadagi va boshqa joylardagi Chet elliklar uchun yagona oynaga murojaat qilish uchun: <https://www.integration.lv/lv/vienas-pieturas-agentura>.

The Integration.lv web-sahifasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: uchinchi davlat fuqarolariga mo'ljallangan xizmatlar; davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan targ'ib etilayotgan integratsiyalash haqidagi yangi ma'lumotlar; uchinchi davlat fuqarolari uchun informativ ma'lumot va manbalar. Ko'proq ma'lumot olish uchun quyidagi havolaga o'ting: <http://www.integration.lv/>.